

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO  
MIQYOSDA TAN OLINISHI TARIXI

*O‘rinboyev Nuriddin Xasanboy o‘g‘li*

*Andijon davlat universiteti “Tarix” fakulteti 301-guruh talabasi*

*Abdullayev Bekzod Xusniddin o‘g‘li*

*Ilmiy Rahbar: O‘zbekiston tarixi kafedrasida o‘qituvchisi*

**Abstrak:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgandan so‘ng Xalqaro miqyosda tan olinishi hamda asosiy hamkor davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishi va bularning O‘zbekiston davlatchiligi uchun tarixiy ahamiyati ilmiy tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Diplomatiya, elchixonalar, siyosat, suverenitet, hamkorlik, aloqalar.

**Abstract:** In this article, the recognition of the Republic of Uzbekistan at the international level after gaining independence and the establishment of diplomatic relations with the main partner countries and their historical significance for the statehood of Uzbekistan are covered based on scientific and historical sources.

**Key words:** Diplomacy, embassy, politics, sovereignty, cooperation, relations.

**Аннотация:** В данной статье на основе научно-исторических источников освещаются признание Республики Узбекистан на международном уровне после обретения независимости и установления дипломатических отношений с основными странами-партнерами и их историческое значение для государственности Узбекистана.

**Ключевые слова:** Дипломатия, посольство, политика, суверенитет, сотрудничество, отношения.

### Kirish

O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e‘lon qilgandan so‘ng ko‘plab davlatlar tomonidan tan olinib, ma‘lum vaqt o‘tgandan so‘ng esa diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ydilar. Ushbu tarixiy jarayon davomida O‘zbekiston ko‘plab davlatlar bilan ijobiy diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yish davomida o‘zining og‘ir iqtisodiy vaziyatidan ushbu davlatlar bilan savdo aloqalarni yo‘lga qo‘yish orqali chiqib olish imkoniga ham ega bo‘ldi.

### Natijalar

Hech kimga sir emaski O‘zbekistonning mustaqilligini birinchi bo‘lib o‘zbeklarga qardosh xalq xisoblangan Turkiya Respublikasi tan olgan bo‘lsa, O‘zbekiston bilan birinchi diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘ygan davlat bu Avstraliya hisoblanadi. 1992-yilda birinchi bo‘lib Amerika Qo‘shma Shtatlari Toshkentda o‘z elchixonasini ochgan davlat bo‘ldi.

1991-yilning 27 - dekabr sanasidayoq Xitoy Xalq Respublikasi O‘zbekistonni suveren davlat sifatida tan oldi. 1992-yil 2 – yanvar kuni XXR tashqi iqtisodiy aloqa va tashqi savdo vaziri Li Lanzin O‘zbekiston va Xitoy aloqalari Toshkentda bo‘ldi, shu kuni ikki mamlakat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi, elchixonalar ochishga qaror qilindi. O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan diplomatik

munosabatlarining o‘rnatilishiga yuqori baho berib “qondosh-qardosh mamlakatlar bilan hamkorlikni yuqori davlat darajasida mustahkamlash respublikaning haqiqatan ham teng sherikchilik va o‘zaro hurmat prinsiplari asosida jahon xo‘jalik aloqalari tizimiga kirishiga imkon beradi. Birinchi navbatda Osiyo va Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlar bilan tashqi aloqalarni o‘rnatishga intilishimiz xuddi shu bilan belgilanadi” -degan edi [1].

1991-yil 30-dekabr kuni ushbu mintaqaga kiruvchi yana bir davlat hisoblangan Koreya Respublikasi davlatimiz mustaqilligini tan oldi. Davlatlar o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yil 29-yanvardan boshlandi [2]. Ushbu yilning o‘zidayoq Koreya Respublikasi O‘zbekiston bilan investitsion loyihalarni amalga oshirishga kelishib oldi. Shu yili erishilgan kelishuvga ko‘ra 1996-yil Asakada avtomashina zavodi ishga tushirildi. Ushbu avtomashina zavodi dastlab yiliga 100 mingta avtomashina ishlab chiqargan bo‘lsa, keyinchalik to‘la quvvat bilan 200 mingta avtomashina ishlab chiqara boshladi.

Shu yillar davomida qator Yevropa mamlakatlari bilan ham diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yildi hamda kelgu qisqa davr mobaynida turli davlatlar rahbarlarining O‘zbekistonga tashrifi amalga oshirildi. Jumladan Yevropadagi eng yirik mamlakatlardan biri bo‘lgan Germaniya Federativ Respublikasiga Islom Karimovning 1993-yil aprel—may oylaridagi rasmiy safari davomida Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti R. fon Vayszekker, kansler Gelmud Kol va boshqa ishbiarmonlar vakillari bilan uchrashuvlar o‘tkazildi. Muzokaralar yakuniga ko‘ra mablag‘ sarflash, uni birgalikda himoyalashga ko‘maklashish to‘g‘risida Shartnoma, Madaniy hamkorlik va ilmiy-tadqiqot jamg‘armasini tuzish haqida bitimlar imzolandi. Germaniyaning «Doyche bank AG», «Komersbank», «Kemikal bank AG», «Mercedes-Bens», «VilliBets» kabi bank va kompaniyalari bilan muntazam aloqalar bugungi kunda ham davom etmoqda. Ayniqsa O‘zbekistonda nemis mahsulotlariga bo‘lgan talab juda ham yuqori.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Muminov Khusanboy Madaminjanovich, & Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon Ugli. (2024). HISTORY OF DIPLOMATIC AND ECONOMIC RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE PEOPLE’S REPUBLIC OF CHINA (1991-2016). *International Journal Of History And Political Sciences*, 4(02), 12–19. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume04Issue02-03>
2. Kun.uz. URL: <https://kun.uz/uz/news/2017/11/22/uzbekiston-va-korea-urtasidagi-siesij-amkorlik>
3. Shamsutdinov R., Mo‘minov X. O‘zbekiston tarixi. –Toshkent: Akademnashr 2019. –B 558.